Qiziqarli kimyo: kosmosda metil kation

// 14.11.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/qiziqarli-kimyo-kosmosda-metil-kation



Uglerod elementining kimyoviy xossalari yillar davomida ko‘plab tadqiqotlar mavzusi bo‘lib kelgan. Bu sohadagi kuzatishlar bizni Yerdagi hayot evolyutsiyasi sirlarini, shuningdek, uning koinotning boshqa joylarida rivojlanish imkoniyatlarini tushunishga undaydi.

Xalqaro olimlar jamoasi NASAning Jeyms Uebb kosmik teleskopi yordamida olingan suratni e’lon qildi. Rasmda yangi, ilgari kuzatilmagan uglerod birikmasi - metil kation (CH_3^+) aniqlangan. Zarracha yulduz tizimida bizdan - Orion tumanligidan taxminan 1350 yorug‘lik yili uzoqligida joylashgan.

Kosmik ultrabinafsha nurlanish aksariyat organik tuzilmalarga halokatli ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, olimlar bu energiya metil kationining hosil bo‘lishida muhim rol o‘ynashini taxmin qilmoqdalar. Hosil bo‘lgach, ion keyingi kimyoviy reaksiyalarga kirishadi, natijada yanada murakkabroq uglerod molekulalari - hayot izlari hosil bo‘ladi.

Metil kation birikmasi (CH_3^+) vodorod bilan nisbatan yomon reaksiyaga kirishadi, lekin boshqa moddalar bilan oson ta’sirlanadi va tirik organizmlar uchun zarur bo‘lgan murakkabroq uglerod asosidagi molekulalarning shakllanishini keltirib chiqaradi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati